

G'affarov Maqsadbek Qadamboyevich
O'qituvchi
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining
Xorazm akademik litseyi

ARXEOLOGIK VA YOZMA MANBALARDA O'RTA OSIYO MUDOFAA INSHOOTLARINING AKS ETTIRILISHI

Arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, O'rta Osiyoning janubiy mintaqasi bo'lgan Janubiy Turkmanistonda mil.avv. IV-III ming yilliklardayoq oddiy mudofaa inshootlari paydo bo'la boshlagan. Mudofaa devorlar mudofaa nuqtai-nazaridan oddiy bo'lib, ko'proq paxsadan qilingan to'siqdek ko'rinsada, ular aholining xavfsizligini ta'minlash uchun aniq maqsadida qurilganligini qayd etish joiz.

Turon mudofaa tizimining rivoji bronza davrida kechgan tarixiy jarayonlar bilan bog'liq. A. Asqarovning Sopollitepada olib borgan arxeologik izlanishlar natijalaridan ma'tumki, u murakkab fortifikatsiya tizimiga ega bo'lgan. Bu yodgorlik to'rtburchak shakldagi bu yodgorlik H-shaklda burjdan holi mudofaa devor bilan o'ralgan. Bu mudofaa elementining o'ziga xos xususiyati labirint tilsimida bo'lib, dushmani tuzoqqa tushirish vazifasini bajargan. Tashqi mudofaa devori 8 ta darvozaga ega bo'lib, ichki mudofaa devorlarining darvozalari faqat bittadan qilib qurilgan. Bu qal'aga hujum qilayotgan dushman kuchlarini chalg'itish uchun qilinganligini mutaxassislar alohida qayd etib o'tishadi. Tashqi devor darvozalaridan faqat bittasida qal'a ichiga olib boruvchi yo'l bo'lib, qolgan ettitasidan tashqi va o'rta mudofaa devori orasida joylashgan labirint shakldagi murakkab karidorlarga kirishgan.

O'rta Osiyoda, xususan, Turon zaminida bronza davridan boshlab manzilgohlar mudofaa devorlari bilan o'ralgan olinishidan dalolat beradi. Jamiyat taraqqiy etib borishi hamda urushlar ko'lamiga qarab mudofaa tizimi ham bosqichma-bosqich murakkablashib bordi. Muhim tranzit aloqa yo'llari bo'yi va kechuvlarda maxsus qo'rg'onlar, soqchi-minoralar barpo etila boshlandi. O'rta Osiyodagi qadimgi shaharlarning eng muhim tarkibiy elementlarini tashkil qilgan fortifikatsiya tizimi mavjudligini hisobga olsak, mudofaa masalasi jamiyat hayotida katta o'rin tutganligini kuzatish qiyin emas. Turondagi Qiziltepa, Uzunqir, Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Talashkan shahar va shaharchalar ikki qatorli mudofaa devorlar bilan himoyalangan. Uzunqirdagi mustahkam bujlar va jangovor shinaklarga ega bo'lgan mudofaa devori tuzilishi Mesopotamiyadagi qadimgi shaharlar mudofaa tizimiga aynan o'xshab ketishini mutaxassislar alohida qayd etganlar. Ahamoniylar davriga oid qishloq tipidagi Talashkantepada (mil.avv. VI-IV asrlar) himoya inshootlarining yangi elementlari aholi tomonidan qo'llanilgan. Yodgorlik aylana shakldagi ikki qatorli mudofaa devor bilan o'ralgan bo'lib, yarim aylana bujlariga ega. Ular o'z navbatida kamondan o'q otishga mo'tajallangan ikki qatorli shinaklarga teshiklarga ega markazlashgan iqtisodiy va siyosiy jihatdan qudratli imperiya shaklidagi davlatlarning paydo bo'lishi va bo'lganligi bois, miloddan avvalgi IV asrdan boshlab, qal'alami zabt etishga mo'tajallangan hujumkor qurollar - katapultlar, manjanaqlar va boshqalar paydo bo'ldi. Takomillashgan harbiy qurollar himoya devorlari qurish ishiga ma'lum ma'noda o'zgartirishlar kiritilishini taqozo etdi. Shuning uchun ham himoya devorlarining asosi ancha qalin bo'lgan bo'lib, uning atrofi suv to'ldirilgan chuqur xandaq bilan o'ralgan. Devor burchaklari va tashqi devor bo'ylab devor bo'ylab ma'lum masofadabujlar barpo etila boshlangan. Devor va uning bujlarida bir, ikki qator qilib o'q-yoy otish uchun teshiklar qilingan. Bujlar doira, to'rtburchak, yarim aylanasimon shakllarga ega bo'lgan. Qal'alarda eng o'zjoy mudofaa darvoza bo'lgan. Shuning uchun ham kirish joylari murakkab darvozaoldi tartibi bilan mustahkamlangan bo'lib, ushbu qurilma Xorazm shahar va shaharlarida keng tarqalgan. Shuningdek, boshqa himoya ishlari ham shaharsozlikda qo'llanilgan. Qal'a devorlari platforma ustiga qurilganligi bois, devor kirish joyi yuqorida joylashgan. Unga olib chiquvchi yo'l - pandus tor ishlangan bo'lib, dushmanlar bu yerdan faqat bir yoki ikki qator bo'lib chiqa olish imkoniyatiga ega bo'lgan. Bu esa hujum qilayotganlarning qal'aga kirishini qiyinlashtirgan. Shuningdek, pandus shunday qurilganki, darvoza tomon borayotgan yov, qal'a himoyasiga qilich ko'targan tomoni, ya'ni ochiq tomoni bilan bo'lib turgan. Ikkinchi qo'lidagi qalqon bilan o'zini to'sish juda noqulay bo'lgan. Qizilqal'a shahar mudofaa tizimini barpo etishda muhandislar atrof-muhit

va tabiiy sharoitdan foydalanishga katta e'tibor berishgan. Shu bilan birga, aholi shaharlar mudofaa tizimida daryolar o'zidan samarali foydalanilgan. Buni biz qadimgi Uzunqir, Termiz, KatqaTa (Beruniy) va boshqa shaharlar misolida ko'rishimiz mumkin.

O'rta asrlar davridagi mudofaa inshootlari tuzilishida bir qator o'ziga xosliklarni kuzatishimiz mumkin. Shaharlarning ko'pchiligi uch qismdan: ark (hukmdor qarorgohi), shaharning ichki qismi va shahar atrofidagi hududlar - rabotdan iborat bo'lgan.

Hukmdoryoki shahar hokimi qarorgohi bo'lgan ark odatda shaharning markaziy qismigayaqin joydajoylashib, mustahkam mudofaadevori bilan o'rib olinar edi. O'rta asr shaharlarini o'rab turgan mudofaa devorlari o'z tizimi va boshqaradigan vazifasiga ko'ra qadimgi davr shaharlari mudofaa devorlari tuzilishidan unchalik ko'p farq qilmaydi. Mudofaa devorlari odatda devor ustidabir necha qator jangchilar, zambaraklar bemalol joylashishiga imkon beradigan darajada qalin qilinib qurilar edi. Qurilishda asosan xom g'isht va paxsadan foydalanilganligi O'rta Osiyo mudofaa devorlarining o'ziga xos xususiyatlaridandir.

O'rta asr shaharlari odatda 4 tadan 12 tagacha darvozaga ega bo'lib, ular kechasi yopib qo'yilar va maxsus qo'riqchilar tomonidan qattiq qo'riqlanar edi. Shaharlarning mamlakat miqyosidagi siyosiy, harbiy-strategik mavqesiga qarab, ularning mudofaa qobiliyati ham shunchalik o'sib borgan. Buularning mudofaa devorlarining o'rta asr qamal qurollari, ya'ni shaharlarning devorlarini buzishga imkon beruvchi qurollardan (manjanak va boshqalar) himoya qilinishi darajasining yuqoriligi hamda shaharda himoya uchun etarli harbiylar guruhining mavjudligi va uzoq qamalga bardosh berish imkoniyatini oshiradigan zaxiralar - (oziq-ovqat, qurol-yarog' va boshqalar) mavjudligi bilan ham xarakterlanadi.

Yozma manbalarda O'rta Osiyoda shaharlar mudofaa devorlari haqida ma'lumotlar qayd qilinadi. Narshaxiyning «Buxorotarixi» asarida Buxoro devorlari haqidakeltirilgan ma'lumotlar, arab sayyohlari va geograflari ibn Havqal, Istaxri, Maqdisiy, Se'moniy, Yoqut asarlarida Movaraunnahr shaharlari, mudofaa devorlari, darvoza va burjlari haqida keltirilgan ma'lumotlarni uchratish mumkin.

O'rta asr mudofaa inshootlarining mustahkamlik darajasi va shaharlarning uzoq qamalga bardosh bera olishlari XIII asr boshlarida, mo'g'ullar istilosi paytida ham yaqqol namoyon bo'ldi. Xorazmshoxlar poytaxtining chegara shahri bo'lgan O'tror va poytaxt shahar Urganchni egallash uchun Chingizxon qo'shinlari 5 oydan ortiq vaqt sarflashganligining o'ziyoq bu davr fortifikatsiya inshootlari sifatidan dalolat beradi. Agar Chingizxon qo'shinida devorlarni buzishga mo'ljallangan maxsus qurilmalar, bu sohada mutaxassis bo'lgan xitoylik muhandislar ham bo'lganligini hisobga olsak, O'rta Osiyo shaharlarining mudofaa qudrati darajasi haqida kerakli xulosa chiqarishimiz mumkin.

Amir Temur va temuriylar davrida Samarqand, Shahrisabz, Nasaf, Andijon va boshqa shaharlar mudofaa devorlari o'z hajmi va ko'lami bilan zamondoshlari e'tiborini tortganligi ma'lum. Temuriy hukmdor Bobur Mirzo o'zining «Bobumoma» asarida Andijon qo'rg'oni haqida «Movaraunnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidan so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qdir» deb ta'kidlab o'tishi ham yuqoridagi fikrimizning isbotlaydi.

XV-XVI asrlarda Movaraunnahrning muhim harbiy strategik ahamiyatga ega bo'lgan shaharlaridan biri bo'lgan Shahrisabz XVI asrda, shayboniylar davrida ham o'z mudofaa qudrati bilan ajralib turardi. Amir Temur tomonidan XIV asr so'nggi choragida qurilgan mudofaa devori XVI asr tarixchilarining ham hayratiga sabab bo'lganligini Hofiz Tanish Buxoriyning Shahrisabz baland mudofaa devorga, mustahkam burjlarga, ega bo'lib, hech qaysi hukmdor bu shahami osonlik bilan qo'lga kirita olmas edi, degan fikrlardan ham bilishimiz mumkin.

O'rta Osiyo mudofaa inshootlari ularning turlarini yoritish bilan birga, fortifikatsiya tizimlarining dehqonchilik vohalarini o'rab turgan devorlar haqida ham alohida e'tibor berish lozim. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyodagi bunday devorlar antik davrda paydo bo'lgan. Salavkiylar davlati asoschisi Salavka va uning o'g'li Antiox O'rta Osiyoda mudofaa inshootlari, mustahkamlangan shaharlar, qo'rg'onlar qo'rishga katta e'tibor berishganligi ma'lum. Antiox tashabbusi bilan Murg'ob vohasida (Turkmaniston) Aleksandr tomonidan qurilgan shahar mahalliy ko'chmanchilar tomonidan vayron etilgandan keyin, Antiox bu yerda yangi mustahkam shaharga asos soladi (Bu shahar uning nomi bilan Antioxiya deb atalgan) va Marv vohasini ko'chmanchilar hujumidan himoya qilish uchun uzunligi 235 km ga teng bo'lgan devor qurdiradi. Bu ulkan mudofaa devorining xarobalari Turkmanistondagi Bayram-Ali shahri yaqinida xozirgacha saqlanib qolgan.

Mil.avv. II asrda Xan imperiyasi davrida qurilgan Buyuk Xitoy devori ham ko'chmanchi xalqlar (xunlar) hujumidan himoyalanih maqsadida barpo etilganligini hisobga olsak, bunday mudofaa devorlari qurilishida umumiy o'xshashlik va vaziyat taqozosini ko'ramiz. Ehtimol Buyuk Xitoy devori qurish g'oyasi ham O'rta Osiyodagi Antiox devori ta'sirida paydo boTgan boTishi mumkin.

Arxeologiktadqiqotlar natijasidaKushon davlatining sharqiy chegaralarida, Ko'hitog', Boy sun va Xisor togTaridan ham yirik mustahkam mudofaa devori qoldiqlari qazib topildi.

Shu tariqa O'rta Osiyoning janubida antik davrda Buyuk Xitoy devoriga monand qilib barpo etilgan mudofaa devorlari paydo boTa boshladi. Bunday devorlaming o'rta asrlar davrida ham mavjud boTgan boTib, ular bu davrda ham ko'chmanchi xalqlar hujumidan saqlanish maqsadida xizmat qilganligini ko'ramiz.

O'rta asrlarda Samarqand vohasi atrofini o'rab turgan Devori qiyomat, Kampirak devori, Buxoro vohasini ko'chmanchilar hujumidan saqlab turgan va boshqa vohalarda mavjud boTgan devorlar haqida manbalarda maTumotlar mavjud. Xususan, Narshaxiyning dalolat berishicha, Buxoro vohasini o'rab turgan devor Buxoro hokimi Muxtadiy ibn Hammad ibn amir az-Zuhliy davrida qurila boshlagan bo'lib, uning har bir farsaxida bir darvoza, har yarim mil masofada esa mustahkam minorasi boTgan. Bu devor qurilishi 830/831 yil fevral oyida, Muhammad ibn Yahyo ibn Abdulloh ibn Mansur ibn Xaljad ibn Varak amirligi davrida qurib bitkazilgan. Bu devor har yili ta'mirlanib, uning xarajatlari Buxoro aholisidan undirib olingan. Somoniylar davlati asoschisi Ismoil Somoniy Buxoro xalqini bu xarajatlardan va hashar ishlaridan ozod qilish uchun bu devomi ta'mirlamay qo'ydi. Ismoil Somoniyning «To men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo'laman»degan gaplari esa el orasida mashhur bo'lib ketgan edi. Lekin bu devor buzilib ketgandan keyin bir necha o'n yil o'tib, Somoniylar davlati ko'chmanchi turkiy xalqlar asos solgan Qoraxoniylar davlati tomonidan yo'q qilinganligini esga olsak, bunday himoya devorlarining ahamiyatini yanada yaxshiroq anglay boshlaymiz.

Turon hududidagi tarixiy-madaniy vohalarni o'rab turgan devorlar ichida Kitob-Shahrisabz vohasida barpo etilgan va tarixiy manbalarda «Chim» mudofaa devori nomi bilan atalgan devor ham katta o'rin tutadi. Bu mudofaa devori fortifikatsiya tarixidagi qadim an'analar to XIX asr o'rtalarigacha saqlanib kelganligidan dalolatdir.

Umuman olganda, mudofaa inshootlarining vujudga kelishi va rivojlanishi harbiy san'atining ajralmas bir qismi bo'lib, ularni o'rganish o'zbek xalqi me'morchiligi, fortifikatsiya inshootlarini barpo etish va foydalanish masalalarini yoritishda muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda mudofaa devorlari XIX asr oxiri-XX asr boshlariga kelib, mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatga bog'liq holda o'z harbiy ahamiyatini yo'qotadi va arxeologik obidalar qatorida tarixiy voqealar sirlarini hanuzgacha saqlab kelmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Asqarov A. Sopollitepa. T.: Fan, 1973
2. Narshaxiy "Buxoro tarixi". -T.: 2005.
3. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. («Sharafnomai shohiy») / Fors tilidan S. Mirzaev tarjimas,- T.: Sharq, 1999. 1-kitob.
4. Sobirov Q. Qadimgi O'rta Osiyo mudofaa inshootlari tarixidan. (Eng qadimgi davrdan II ming yillik oxiri). T.: 2008.
5. Sobirov Q. Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari. T.: 2008.
6. O'zbekistonda Harbiy ishtarihidan. (Qadimgi davrdan hozirgacha) T.: 2012.
7. Bobur Zahridin Muhammad. Boburnoma. T.: "O'qituvchi" 1989.
8. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. -T.: 2000.
9. Шермухамедова, Нигинахон. "Фалсафа." (2010).